



2017 yil yanvar – noyabr oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlari

2017 yilning yanvar– noyabr oylarida Samarqand viloyatida 2122,5 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilib, oʻsish surʼati oʻtgan 2016 yilning shu davriga nisbatan 86,8 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 151,8 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻsish surʼati 121,2 foizni tashkil qildi.



Jami qurilish ishlarining hajmida kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 46,1 foizni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun moʻljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yoʻllarini taʼmirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obʼyektlari (maktablar, maktabgacha taʼlim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida oʻz faoliyatlarini amalga oshirmoqda.



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2054,5 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 96,8 foizini tashkil qildi

va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan 3,0 bandga kamaydi. Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 67,9 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi 3,2 foizini tashkil qildi.



2017 yilning yanvar – noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikda bino va inshootlar qurilishining ulushi 1685,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,2 foizni tashkil qildi. Davlat mulkchiligidagi ulush esa, 39,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,4 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish ob'yektlarining ulushi 267,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 89,1 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 24,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 62,2 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 101,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,3 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 3,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,2 foizni tashkil qildi.